

UO'K 001.8:316.42

**BADIIY VA ILMIY IJODNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI
AHAMIYATI****Rayimxo'jayeva Barnoxon Komilxo'jaevna**

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: Barnoxon2504@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy va ilmiy ijodning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi- ijodning inson tafakkuri va ijtimoiy hayotdagi o'rni, uning erkinlik va yangilik yaratuvchi kuch sifatidagi xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Kalit so'zlar: *ijod, badiiy ijod, ilmiy ijod, tafakkur, erkinlik, taraqqiyot, ma'naviyat.*

Раимхуджаева Барнохон Комилходжаевна*Магистрант Намаганского государственного университета***ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО И НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВА В
РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**

Аннотация: В данной статье анализируется значение художественного и научного творчества в развитии общества. Основная цель статьи — раскрыть роль творчества в человеческом мышлении и общественной жизни, а также его сущность как силы, создающей свободу и новаторство.

Ключевые слова: *творчество, художественное творчество, научное творчество, мышление, свобода, развитие, духовность*

Rayimkhodjayeva Barnokhon Komilkhodjaevna

Master's degree student, Namangan State University

THE SIGNIFICANCE OF ARTISTIC AND SCIENTIFIC CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation: This article analyzes the significance of artistic and scientific creativity in the development of society. The main purpose of the article is to highlight the role of creativity in human thinking and social life, as well as its nature as a force that generates freedom and innovation.

Keywords: creativity, artistic creativity, scientific creativity, thinking, freedom, development, spirituality

KIRISH.

Ijod-inson tomonidan yaratiladigan kayfiyotlar yoki ixtirolardir. Ijodning 2 xil ko'rinishi mavjud bo'lib ular quyidagilar: Ilmiy ijod va badiiy ijod. Ijodning asosiy xususiyati bu erkinlikdir. Shoirilar, yozuvchilar o'zlarining erkinligidan foydalanib ijod qilishadi, ya'ni ular o'zlarining fantaziyasi, dunyoqarashi orqali erkin ijod qilaoladi. Lekin bu erkin ijodga to'sqinlik holatlari ham kuzatilinadi. Misol uchun Jadidlarimiz o'zlarining erkinliklaridan to'laqonli foydalanaolmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Badiiy ijod orqali insonlarning ongiga, fikrlashiga ta'sir ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident Islom Karimov Abdug'aniyevich "...olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma'naviy boyliklarni aynan shular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish, samarali faoliyati uchun barcha zarur moddiy-ma'naviy sharoitlarni yaratib berish davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va ma'suliyatli vazifasidir" deb yozgan. Shu nuqtai nazardan , bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy tadqiqotning nazariy asoslarini o'rganishi va egallagan bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.[1] Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi 2-prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida ham o'zining iliq fikrlarini hamda badiiy va ilmiy ijodga bo'lgan chuqur hurmatini bildirib o'tgan "Inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz,

muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflı ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Men sizlarning ko'pchiligingizni uzoq yillardan buyon yaqindan taniyman, asarlaringizni o'qiganman, sizlar yaratgan kuy-qo'shiqlarni, kartinalar, film va spektakllarni doimo katta qiziqish bilan tinglab, tomosha qilib kelaman. Jizzax va Samarqand viloyatlarida hokim bo'lib ishlaganimda ham, Toshkentdagi faoliyatim davomida ham siz, muhtaram ijodkorlar bilan katta-katta tadbirlar, bayram va marosimlarda ko'p-ko'p uchrashganimiz, suhbatlashganimizni, kerak bo'lganida, ijodiy bahslar ham qilganimizni, birgalikda amalga oshirgan ishlarimizni men doimo minnatdorlik bilan eslayman. [2] Prezidentimizning bu so'zlari ijod ahliga bo'lgan chuqur ehtirom va samimiy e'tiborning yorqin ifodasidir. Darhaqiqat, ijodkorlar xalq qalbining tarjimoni, millat ruhining ifodachisidir. Ularning so'zi, kuy-qo'shig'i, asarlari orqali inson qalbiga umid, mehr va Vatanga muhabbat singadi. Davlat rahbarining bunday e'tirofi esa ijodkorlarga katta ruhiy kuch, yangi ilhom va mas'uliyat bag'ishlaydi, chunki ijodkorlik – bu jamiyatni ma'naviy yuksaltirishning eng ta'sirli yo'lidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy va ilmiy ijod masalasi ko'plab olim va mutafakkirlarning diqqat markazidabo'lib kelgan. Mazkur sohada turli davr va yo'nalish vakillari ijodning mohiyati, jarayoni hamda inson tafakkuri bilan bog'liqligini o'z qarashlarida yoritganlar. Shell o'z asarlarida ijod jarayonini sirli, ongsiz va ilhomiy holat sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, "ijodkor inson o'z ongining nazoratidan chiqib, ilhom parisi yordamida yaratuvchanlik holatiga kiradi." Bu fikr badiiy ijodning ilohiy ilhom, ruhiy kuch va tabiiy iste'dod bilan bog'liqligini ifodalaydi. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari – Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Kamoliddin Behzod ijodida ham badiiy yaratuvchanlik inson kamoloti, ma'naviy poklanish va xalqparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda talqin qilingan. Navoiy ijodida badiiy asar faqat so'z o'yini emas, balki inson qalbini tarbiyalaydigan, ma'naviy uyg'onishga xizmat qiladigan vosita sifatida baholanadi. E.Ya. Basin ilmiy ijodning mohiyatini shaxsning "ratsional ko'rish va tafakkur faoliyatining namoyon bo'lish shakli" sifatida ta'riflaydi.

Unga ko'ra, ilmiy ijod nafaqat hissiy idrok, balki aql, mantiq va tahliliy fikr uyg'unligidan iborat jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi O'zbekiston Respublikasining ma'naviyat, madaniyat va ijod sohasidagi davlat siyosati hamda Prezident qarorlarida belgilab berilgan ilmiy tamoyillarga tayanadi. Tadqiqot davomida badiiy va ilmiy ijodning mohiyatini, ularning o'zaro aloqadorligi hamda inson ma'naviy hayotidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Badiiy ijod – yuksak ma'naviy voqelikni aks ettiruvchi badiiy obrazlarni turli janr va ifodaviy uslubda yaratishga qaratilgan insonning aqliy faoliyatidir. Badiiy ijod adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy san'at, musiqa, raqs, teatr, kino va inson faoliyatining boshqa turlarini o'z ichiga qamrab, dunyoni anglashning xaqqoniy va majoziy shakllarini kashf etib namoyon qiladi. Badiiy ijodda muallifning muayyan jamiyat hayotining muayyan davri muammolariga nisbatan shaxsiy nazari, o'ziga xos badiiy talqini, his-tuyg'ulari o'z ifodasini topadi. Badiiy ijod murakkab jarayon bo'lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Buning uchun ijodkor erkin xayol, keng qamrovli tafakkur, boy ramziy tasavvur, milliy ong va yuksak maxoratga ega bo'lishi kerak. Badiiy ijod mahsulining dolzarbligi va ijtimoiy mohiyati ana shu bilan belgilanadi. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va madaniy-ma'naviy tafakkurning yuksalgan darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ijodkorlik – sifat jihatdan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishni taqozo etadigan faoliyat jarayonidir. Ijodkorlikni ishlab chiqarishdan ajratib turuvchi asosiy mezon unga tegishli bo'lgan natijaning o'ziga xosligidir. Negaki, muayyan ijod mahsulining so'nggi natijasiga muallifdan boshqa hech kim erisholmaydi. Shunday ekan, muallif ijod jarayonida mantiq bilan o'lchanmaydigan ba'zi imkoniyatlarni ishlatadiki, natijada u o'z shaxsiyatining ayrim qirralarini ifoda etadi. Shu bilan,

muallifning badiiy ijod namunasi yakka nusxada yaratilgan eksklyuziv asar bo‘ladi. Aynan shu holat ijod mahsulining ishlab chiqarish mahsulotiga nisbatan qo‘shimcha qiymatini belgilaydi. Shellning fikriga ko‘ra, ijodga sirliklik xos: “Yozuvchilar, shoirlar, musavvirlar ijod jarayoni qanday ro‘y berishini tushuntirib bera olishmaydi va bu bilan faxrlanishadi ham. Xuddi o‘sha mutloq aql-Xudoning xohshi va ruhi yordamida ijod jarayoni ong nazoratidan qutiladi. Natijada “ilhom parisi” deb ataladigan sirli, ongsiz ijodiy kuch ruh uchun badiiy yaratuvchanlik vazifasini bajarishga kirishadi[3] Mamlakatimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod singari badiiy ijodning yuksak pog‘onalariga erishib, bu sohada taraqqiyotning yangi ufqlarini belgilab bergan atoqli namoyandalarni ko‘ramiz. Ushbu namoyandalar adabiyot va tasviriy san‘at sohalarida badiiy ijodning yangi tendensiyalarini belgilab berganlar.

Bugungi kunda yurtimizda badiiy ijodning taraqqiy etishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Prezidentimizning “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlarida badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekistonda madaniyat, san‘at va jurnalistikani rivojlantirish uchun mablag‘ ajratish va yo‘naltirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Yangi narsaning paydo bo‘lishi ijodiy yaratilish natijasida yuzaga keladigan jarayondir. Ijod, xususan, uning eng yuqori shakli bo‘lgan ilmiy ijodning muhim sharti - olimning o‘z-o‘zini anglashida yorqin namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, inson - har qanday ijodiy harakatning asosiy manbasi va ma’nosi hisoblanadi, ya’ni inson shunday ijod orqaligina jamiyatning haqiqiy boyligini oshirishi, o‘zini aqlliyoq, mehribonroq, ruhini esa balandroqqa ko‘tarishi mumkin. Shu ma’noda, ijod bu alohida faoliyat bo‘libgina qolmay -ijodkor olimning yashash usuli hamdir. Ilmiy ijod asosida inson yangi ilmiy yo‘nalishlar va yangi fanlarni vujudga keltiribgina qolmasdan, balki yangi ilmiy bilimning noan’anaviy sohalariga asos soladi. Ayni shu ma’noda, E.Ya.Basin fikricha, «Ilmiy ijod shaxsning muhim belgisi - ratsional ko‘rish va faoliyatining namoyon

bo'lish shaklidir. Bu shunchaki hissiy qabul qilish yoki intellektual faoliyat emas, balki dunyoni shunday ko'rishki, unda hissiyotlar, aql, tuyg'ular uzviy jihatdan uyg'unlashgan tarzda aks etadi"[4] V.A.Kovalenko esa, "Ilmiy ijod inson ruhiy faoliyatining ongsizlik xossa va sifatlarini namoyon bo'lishidir"[5]deb hisoblaydi.Bu masalaga S.LBugrova yanada chuqurroq yondashadi. Uning fikricha, "Ilmiy ijod insonning bevosita hayotiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, unga ko'proq obyektivlik hamda tizimlilik xosdir"[6]. Ayni shu ma'noda,biz ilmiy ijodni dunyoni butun insoniy borliq bilan zabt etish, unga nisbatan o'zgacha ochiqlik va xolislik nuqtai n'azaridan qarash, deb tushuntirishimiz mumkin. Ijodkorning ilmiy ishi uning asosiy jonli mazmunini tashkil etadi. Bu esa ilmiy-ijodiy faoliyatning turli darajadagi falsafiy talqinlari uning obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy va ilmiy ijod jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismidir. Badiiy ijod inson qalbini tarbiyalab, ma'naviy dunyosini boyitadi, milliy o'zlikni anglash va Vatanga sadoqat tuyg'usini mustahkamlaydi. Ilmiy ijod esa inson tafakkurining yuksak mahsuli bo'lib, yangi g'oyalar, texnologiyalar va kashfiyotlar orqali hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois ijodkorlar nafaqat san'at va fan sohasining vakillari, balki jamiyatning ma'naviy va ilmiy poydevorini mustahkamlovchi yetakchi kuch hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ijodkorlik sharaflı, mas'uliyatli va xalq qalbiga yo'l topuvchi faoliyat bo'lib, u jamiyatning yuksalishida beqiyos o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Басин ЕЛ. Творчество и эмпатия. // 1987,2,54-66.
- 2.Бугрова С.И. Л.Н.Столович. Жизнь - творчество - человек: функции художественной деятельности. М.: Политиздат, 1985 (1987,5, 172).
- 3.Гегель Георг Вильгельм Фридрих. Эстетика. В 4 томах. Том 3. - М.: Искусство, 1971. - 624 с
4. Коваленко В.А.Творчество как ценность в мире А.Платонова. - М., 90.

5. N.A.Shermuhammedova “ Ilmiy tadqiqot metodologiyasi
- 6.Z.Davronov “ Ilmiy ijod metodologiyasi”
7. <https://share.google/GtSykiVGUJ6iwATNA>
8. <https://president.uz/oz/lists/view/856>
9. <https://share.google/5Y5tZhCReJDt02F7>